INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://science-research.org.uz/index.php/ITSE

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Qo‘qon universiteti ta’lim kafedrasi dotsenti v.b.
Komiljonova Guluzraxon Nizomjon qizi
komiljonovaguluzra6@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqola bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining texnologik kompetentligini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslariga bag‘ishlangan bo‘lib, texnologik kompetentlik tushunchasining mazmuni, uning tarkibiy qismlari va ularni shakllantirish jarayoni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi omillar va ta’lim sharoitlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, bo‘lajak o‘qituvchi, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetentlik, texnologik kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik texnologiyalar, kasbga yo‘naltirish, rivojlantirish.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bir necha fanni o‘qitish bilan birga, o‘quvchi hayoti uchun zarur bo‘lgan mehnat faoliyatining dastlabki bosqichlariga rahbarlik qiladi. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarning texnologik kompetentligini rivojlantirish ularning kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismidir.

Zamonaviy ta’limda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning nafaqat bilim olishi, balki amaliy ko‘nikmalarni egallashi ham muhim o‘rin tutadi. Xususan, dastlabki bosqichda texnologiyalarning o‘rni o‘quvchilarda hunarmandchilik madaniyati, mehnatsevarlik va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish bilan belgilanadi. O‘qituvchining texnologik kompetentlik darajasi ushbu maqsadlarga erishishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining texnologik kompetentligini takomillashtirish ta’lim tizimining amalga oshirilishi zarur bo‘lgan muhim jihatlaridan biridir. Shu nuqtayi nazardan, kompetensiyaviy yondashuv nazariyasi va amaliyoti eng dinamik rivojlanayotgan yondashuv bo‘lib, u talqin qiladigan "kompetensiya," "kompetentlik" kabi asosiy tushunchalarni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

“Kompetentlik” *(inglizcha: “competence” “qobiliyat”)* faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishni ifodalaydi. Kompetentlik tushunchasi dastlab ta’lim sohasiga psixologik, pedagogik izlanishlar natijasida kirib kelgan tushuncha bo‘lib, zamonaviy atama sifatida qo‘llanilib kelinmoqda.[1]

Kompetensiyaviy yondashuv g‘oyalari V.I.Baydenko, V.A.Bolotov, V.V.Serikov, Ye.F.Zeer, Ye.Simanuk, I.A.Zimneya, D.A.Ivanov, K.G.Mitrofanov, O.V.Sokolova, O.Ye.Lebedev, G.K.Selevko, B.Abdullayeva, N.Ro‘ziqulova, O.Qo‘ysinov, J.Usarov, U.Raxmatov va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritilgan. Mazkur ishlarning aksariyatida kompetentli yondashuv jamiyatning mutaxassis sifatlari va qobiliyatlariga qo‘yadigan yangi talablari zamonaviy maktab yoki ma’muriyatning paydo bo‘lishiga javob sifatida qaraladi. Ularning tuzilmalariga kompetentli yondashuv g‘oyalarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

A.G.Bermusning fikriga ko‘ra, “Kompetentlik takomillashib borayotgan shaxsning barcha hislatlarini, bilimi, tajribasi, umuman olganda, butun borlig‘ini yagona tizimga birlashtiradi”.

[1] https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi/article/download/7956/12777/24018

“Kompetentlik bu nafaqat shaxsning bilimdon ekanligi, balki o‘z bilimlarini uzluksiz ravishda yangilab borishi hamdir, – deydi. M.A.Choshanov. M.Aronovning fikricha, kompetentlik mutaxassisning ma’lum bir faoliyat uchun tayyor ekanligini bildiradi. Noaniq vaziyatlarda faoliyat ko‘rsata olish qobiliyati bu kompetentlikdir, deydi O.Ye.Lebedev.[2]

Kompetentlik insonning intellektual shaxsiy, ijtimoiy kasbiy hayotiy faoliyatiga asoslanadi, deb yozadi I.A.Zimnyaya. A.V.Xutorskiy “kompetnsiya” va “kompetentlik” tushunchalari ni quyidagicha ajratib olish mumkin, deb hisoblaydi.[3]

Ta’kidlash kerakki, kompetentli yondoshish muammolari bilan shug‘ullanadigan tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, kompetentli yondoshishning tushunchalar doirasi to‘la belgilab berilmagan hamda ularning bir xil va umume’tirof etilgan talqini yo‘q.

Bizning fikrimizcha, kompetensiyaviy yondashuv bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘llay olish, ya’ni buni qanday qilishni bilish, kompetensiya tushunchasi esa aynan o‘sha bilim, ko‘nikma va malakalarni harakatda ko‘rsata olish, ya’ni aynan qanday harakat qilish va nima qilishni bilishdir.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari pedagogik jarayonda texnologiya fanini o‘qitish metodikasi, mehnat muhofazasi, jihozlardan foydalanish qoidalari, o‘quvchilarda amaliy mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish usullari bilan puxta tanish bo‘lishlari lozim. Buning uchun o‘qituvchida texnologik kompetentlik bo‘lishi kerak.

Texnologik kompetentlik - bu o‘qituvchining boshlang‘ich sinflarda texnologiya darslarini tashkil etish, o‘quvchilarga amaliy vazifalarni o‘rgatish, xavfsizlik qoidalarini tushuntirish, turli materiallar bilan ishlash metodikasini o‘zlashtirish qobiliyatidir.

Ushbu kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- Nazariy bilimlar - texnologiyani o‘qitish metodikasi fanining mazmuni, mohiyati, tamoyillari va maqsadlarini bilish;
- Amaliy ko‘nikmalar - turli materiallar bilan ishlash qobiliyati, uskunalardan to‘g‘ri va xavfsiz foydalanish;
- Metodik tayyorgarlik - texnologiya darslarini rejalashtirish, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish va baholash bo‘yicha bilimlar;
- Tarbiyaviy yondashuv o‘quvchilarda mehnat orqali ijobiy sifatlar: mas’uliyat, aniqlik, sabr-toqat, estetik didni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuv.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining texnologik kompetentligini shakllantirishda quyidagi muammolar mavjud:

- ta’lim dasturlarida texnologiyalarga yetarlicha e’tibor qaratilmaganligi;
- amaliy mashg‘ulotlar sonining kamligi;
- texnologiya fanini o‘qitish uchun jihozlar va zarur vositalarning yetishmasligi;
- o‘qituvchilarning ijodiy va dizayn yondashuvlari bo‘yicha bilim darajasining pastligi;
- va hokazo.

Xulosa. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining texnologik kompetentligini rivojlantirish ularni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham puxta tayyorlashni taqozo etadi. Bu jarayonda metodik yondashuvlar, amaliy mashg‘ulotlar, o‘quv-metodik ta’minot, zamonaviy texnologik yechimlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich ta’limda texnologiyaning o‘rni kuchaytirilsa, o‘quvchilarda kasbga yo‘naltirish, ijodiy fikrlash, mehnatga muhabbat kabi ijobiy sifatlar muvaffaqiyatli shakllanadi. Oliy ta’lim muassasalarida texnologiya o‘qitish metodikasi fanidan zamonaviy pedagogik yondashuvlar va amaliy mashg‘ulotlarga alohida e’tibor qaratilib, talabalarni kasbga yo‘naltirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish, mehnatga muhabbatini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. "Texnologiya" fanini samarali o‘qitish natijasida talabalar nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko‘nikma va malakalarga ham ega bo‘ladilar.

Adabiyotlar ro‘yxati

[2] Азимова Н. Э. Технология духовно-нравственного воспитания преподавателя професси- онального образования в процессе обучения //Молодой ученый. – 2011. – №. 5-2. – С. 117-118.

[3] https://interscience.uz/index.php/home/article/download/2996/2646/7964

1. Tilavova M. Texnologiya va uni o`qitish metodikasi [Matn] : o`quv qo`llanma / M. Tilavova.- Buxoro: OOO "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2021. - 312 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son) https://lex.uz/docs/-5013007
3. Matlab Tillavova. Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi. Buxoro: OOO "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2021. - 312 b.
4. Rasulova, Z.D., Quliyeva, Sh.H., Jo‘rayev A.R. Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi [Matn] : O‘quv qo‘llanma / Z.D. Rasulova, Sh.H. Quliyeva, A.R. Jo‘rayev.- Buxoro: OOO "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2021. - 384 b.
5. G.Komiljonova. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. 2025.
6. G.N. Komiljonova. (2025). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING TEXNOLOGIK KOMPETENTLILIGINI SHAKLLANTIRISH . Inter Education & Global Study, (6). Retrieved from https://researcher.uz/docs/bo-lajak-boshlang-ich-sinf-o-qituvchilarining-texnologik-kompetentliligini-shakllantirish-332298
7. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(12), 208–211. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507
8. Madinabonu Shuxratjon qizi, & Esonaliyeva Guluzra Komiljonova. (2023). INSON QADRI VA BARKAMOL AVLOD SHAKLLANISHIDA PEDAGOGIKANING O‘RNI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *1*(1), 788–789. https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.717
9. Abduraxmonova, N. A. qizi. “BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA”. *Educational Research in Universal Sciences*, vol. 2, no. 12, Dec. 2023, pp. 208-11, http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507.
10. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 198–201. Retrieved from
11. Nigoraxon, A., & Mohlaroy, A. (2024). BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUVCHILAR IJODIY FOALIYATINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(1), 83-87.
12. Nigoraxon, Abduraxmonova, and Alijonova Mohlaroy. "BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUVCHILAR IJODIY FOALIYATINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI." Yosh Tadqiqotchi Jurnali 3.1 (2024): 83-87.
13. Kalendarova, Z. K. (2024). INTEGRATSIYA NEGIZIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(2), 189-195.
14. G.N. Komiljonova. "BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING TEXNOLOGIK KOMPETENTLILIGINI SHAKLLANTIRISH ." Inter Education & Global Study, no. 6, 2025. URL: https://researcher.uz/docs/bo-lajak-boshlang-ich-sinf-o-qituvchilarining-texnologik-kompetentliligini-shakllantirish-332298
15. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 198–201. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505
16. Otto, M., & Thornton, J. (2023). FANLARARO BOG‘LANISHLAR ASOSIDA TALABALARNI BILIM VA KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *9*, 187-192. Otto, Mark, and Jacob Thornton. "FANLARARO BOG‘LANISHLAR ASOSIDA TALABALARNI BILIM VA KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH." *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* 9 (2023): 187-192.

17. Komiljonova Guluzrakhan Nizamjon kizi. (2025). FUTURE ELEMENTARY CLASS TEACHERS TECHNOLOGICAL COMPETENCE IN DEVELOPMENT INNOVATIVE APPROACHES. *Journal of Applied Science and Social Science*, *15*(06), 874–880. Retrieved from https://www.internationaljournal.co.in/index.php/jasass/article/view/1395https://scientific-jl.com/tal/article/view/17408
18. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA CHET EL O ‘QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 783-785.
19. Komiljonova Guluzra, & Mahmudjonova Sevaraxon. (2024). BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QUVCHILARINI IJODIY FAOLIYATGA O‘RGATISHDA TEXNALOGIYA TA’LIMINING O‘RNI. *University Research Base*, 282–287. Retrieved from https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/91.
20. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 198–201. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505
21. Komiljonova GuluzraxonNizomjon qizi and To‘lqinova Munira Xasanboy qizi 2025. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA KO‘RGAZMALILIK . *Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi*. 46, 2 (May 2025), 7–11. Komiljonova GuluzraxonNizomjon qizi, and To‘lqinova Munira Xasanboy qizi. “BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA KO‘RGAZMALILIK ”. *Ta’lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi*, vol. 46, no. 2, May 2025, pp. 7-11, https://scientific-jl.com/tal/article/view/17407. Komiljonova GuluzraxonNizomjon qizi, To‘lqinova Munira Xasanboy qizi. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA KO‘RGAZMALILIK . *ta’lim*. 2025;46(2):7-11. Accessed June 10, 2025. https://scientific-jl.com/tal/article/view/17407
22. Komiljonova Guluzra Nizomjon qizi, and Madumarova Mo‘bina. “BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA - FANLARARO ALOQADORLIK ”. *Ta’lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi*, vol. 46, no. 2, May 2025, pp. 12-16, https://scientific-jl.com/tal/article/view/17408. Komiljonova Guluzra Nizomjon qizi, Madumarova Mo‘bina. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA - FANLARARO ALOQADORLIK . *ta’lim*. 2025;46(2):12-16. Accessed June 10, 2025. https://scientific-jl.com/tal/article/view/17408